Emro Science and Education
Open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz

OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 2 No. 2 (2026) · "Milliy statistika tizimida yangi bosqich: barqaror rivojlanish maqsadlari, xalqar... DOI: 10.5281/zenodo.24320101

"MILLIY STATISTIKA TIZIMIDA YANGI BOSQICH: BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARI, XALQARO STANDARTLAR VA ZAMONAVIY TENDENSIYALAR"

O'ZBEKISTON HUDUDLARINING IQTISODIY BARQARORLIGINI BAHOLASHDA STATISTIK INDEKSLARNING O'RNI VA TAHLILI

MEYLIXOLOV MAHMUDBEK O'LMASBEKOVICH
TDIU "Raqamli iqtisodiyot va axborot
texnologiyalari" fakulteti RST-76 guruh talabasi
+998919463724 mahmudmeylixolov@gmail.com
dots.i.f.b.f.d **AKBAROVA BARNO SHUXRATOVNA**
barnoakbarova2019@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasining hududiy iqtisodiy rivojlanish jarayonlari statistik indekslar yordamida tahlil qilingan. Tadqiqotda Yalpi Hududiy Mahsulot (YaHM), sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish va investitsiya faolligi ko'rsatkichlaridan foydalanilgan. 2025-yil natijalariga ko'ra, O'zbekiston iqtisodiyoti 7,7% o'sish sur'atini qayd etgan bo'lib, ushbu jarayonda hududlarning hissasi va nomutanosiblik darajasi statistik usullar yordamida yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Iqtisodiy barqarorlik, statistik indekslar, hududiy rivojlanish, YaHM (Yalpi Hududiy Mahsulot), makroiqtisodiy tahlil, investitsion jozibadorlik, klaster tahlili, integrallashgan ko'rsatkichlar, raqamli iqtisodiyot.

Kirish

Bugungi kunda O'zbekiston iqtisodiyotini modernizatsiya qilish va hududlararo muvozanatni ta'minlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Mamlakatning umumiy iqtisodiy o'sishi bevosita har bir hududning iqtisodiy barqarorligiga bog'liq
O'zbekiston hududlarining iqtisodiy barqarorligini baholashda statistik indekslarni ng o'rni va ta'siri muhim hisoblanadi. Statistik tahlil iqtisodiy jarayonlarni chuqur a nglash, rivojlanish tendensiyalarini aniqlash va qarorlar qabul qilishning ilmiy asos larini yaratishda muhim ahamiyatga ega. Mamlakat iqtisodiy siyosatini shakllantiri sh, tarmoqlar kesimida o'sish ko'rsatkichlarini baholash, bozor mexanizmlarining s amaradorligini aniqlash va investitsion muhitni takomillashtirishda statistik ma'lu motlar asosiy manba hisoblanadi. Statistik tahlil iqtisodiy jarayonlarni chuqur angl ash, rivojlanish tendensiyalarini aniqlash va qarorlar qabul qilishning ilmiy asoslari ni yaratishda muhim ahamiyatga ega. Statistik tahlil iqtisodiy jarayonlarni chuqur a nglash, rivojlanish tendensiyalarini aniqlash va qarorlar qabul qilishning ilmiy asos larini yaratishda muhim ahamiyatga ega. Hududiy iqtisodiy barqarorlikni baholash esa murakkab jarayon bo'lib, u nafaqat ishlab chiqarish hajmini, balki ijtimoiy farovonlik, resurslardan samarali foydalanish va tashqi omillarg chidamlilikni ham

Published: 05.06.2026

Cite this article: Meylixolov Mahmudbek O'lmasbekovich, Akbarova Barno Shuxratovna (2026). O'zbekiston hududlarining iqtisodiy barqarorligini baholashda statistik indekslarning o'rni va tahlili. Emro Science and Education, 2(2). https://doi.org/10.5281/zenodo.24320101

© 2026 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

o’z ichiga oladi Statistik indekslar bu jarayonda asosiy o‘lchov vositasi bo‘lib xizmat qiladi.

Asosiy qism

Ular yordamida dinamikadagi o‘zgarishlarni, hududlararo tafovutlarni va rivojlanish tendentsiyalarini aniq miqdoriy ko‘rsatkichlarda ifodalash mumkin. Iqtisodiy barqarorlikni baholashning nazariy asoslari: Iqtisodiy barqarorlik — bu tizimning ichki va tashqi salbiy ta’sirlarga qaramay, o‘zining ijobiy o‘sish sur’atlarini saqlab qolish va muvozanat holatiga qaytish qobiliyatidir. Hududiy darajada bu tushuncha quyidagi uchta asosiy ustunga tayanadi:

1. Ishlab chiqarish barqarorligi: YaHM tarkibidagi sanoat, qishloq xo‘jaligi va xizmat ko‘rsatish sohalarining mutanosibligi.
2. Moliyaviy barqarorlik: Hududiy byudjet daromadlarining xarajatlarni qoplash darajasi va investitsiyalar oqimi.
3. Ijtimoiy barqarorlik: Aholi bandligi, real daromadlar va yashash darajasi.

Statistik indekslar: Turlari va ahamiyati Statistikada indekslar murakkab ijtimoiy-iqtisodiy hodisalarning nisbiy o‘zgarishini ifodalash uchun qo‘llaniladi. Hududlar iqtisodiyotini tahlil qilishda quyidagi indekslar guruhidan keng foydalaniladi. Indekslarning ushbu hususiyatlari orqali yurtimizdagi hududlar aro narx va miqdor xulosasini va hududlarni barqarorligini taminlash va kichik bizneslarni ham hisoblashga yordam beradi. Misol tariqasida miqdor indekslarni olish mumkin. Bu indekslar ishlab chiqarilgan mahsulot yoki xizmatlar hajmining vaqt bo‘yicha o‘zgarishini ko‘rsatadi. Masalan, Yalpi Hududiy Mahsulotning (YaHM) fizik hajm indeksi:

$$I_q = \frac{\sum q_{1p_0}}{\sum q_{0p_0}}$$

1-rasm. Yalpi hududiy mahsulotning fizik hajm indeksi

Bunda q=1 va q=0 - joriy va bazis davrdagi mahsulot hajmi, p=0 - bazis davrdagi narx. Ushbu indeks hudud iqtisodiyoti haqiqatda o‘syaptimi yoki inflyatsiya hisobiga nominal o‘sish kuzatilyaptimi, degan savolga javob beradi.


Keyingisi esa narx indeksi, hududdagi narxlar darajasining o‘zgarishini baholash uchun Laspeyres yoki Paasche indekslari qo‘llaniladi. Bu iste’mol savatchasi va ishlab chiqarish resurslari narxining barqarorligini nazorat qilish imkonini beradi. Shu qatorda hududning umumiy reytingini aniqlashda bir nechta ko‘rsatkichni birlashtiruvchi kompozit indekslar qo‘llaniladi. Masalan, "Hududiy raqobatbardoshlik indeksi" yoki "Barqaror rivojlanish indeksi". O‘zbekiston hududlari misolida tahlil shuni aytish mumkinki, O‘zbekistonning iqtisodiy xaritasi turlicha salohiyatga ega hududlardan iborat. Toshkent shahri, Navoiy va Toshkent viloyatlari sanoatlashgan hududlar hisoblansa, Qashqadaryo, Surxondaryo va Farg‘ona vodiysi agrosanoat salohiyati bilan ajralib turadi. Statistik tahlillar shuni ko‘rsatadiki, hududlar barqarorligini baholashda faqatgina YaHM hajmiga tayanib

bo‘lmaydi. Masalan, birgina Qashqadaryo viloyati misolida olsak, Qarshi tumani va unga tutash hududlarning statistik ko‘rsatkichlari tabiiy resurslar (gaz va neft) hamda qishloq xo‘jaligi klasterlari hisobiga shakllanadi. Biroq, iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash uchun diversifikatsiya indeksi tahlil qilinishi kerak. Agar hudud iqtisodiyoti faqat bir sohaga bog‘lanib qolsa, tashqi bozor kon’yunkturasi o‘zgarganda barqarorlik yo‘qoladi. Hozirgi kunda an’anaviy statistika usullari raqamli texnologiyalar bilan boyitilmoqda. Katta ma’lumotlar va sun’iy intellekt yordamida hududlarning real vaqtdagi iqtisodiy holatini prognoz qilish imkoniyati tug‘ildi. Statistik indekslarni hisoblashda SQL va Python kabi dasturlash tillarini qo‘llash ma’lumotlarning aniqligini va tezkorligini oshiradi. Bu esa, o‘z navbatida, iqtisodiy qarorlar qabul qilishda xatoliklar xavfini kamaytiradi. Hududiy barqarorlikni oshirish bo‘yicha takliflar Statistik tahlillar natijasida aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish uchun quyidagi chora-tadbirlar tavsiya etiladi:

• Hududiy ixtisoslashuvni chuqurlashtirish: Har bir hududning "drayver" sohalarini aniqlash va ularni statistik monitoring qilib borish.

• Kichik biznes indeksini joriy etish: Hudud barqarorligi ko‘p jihatdan kichik va o‘rta biznesning YaHMdagi ulushiga bog‘liq.

• Investitsion samaradorlik tahlili: Hududga kiritilgan investitsiyaning har bir so‘miga to‘g‘ri keladigan mahsulot chiqarish hajmini muntazam baholash.



2-rasm. 2025-yilda biznes muhitining indeksda ko’rinishi

2024-yilga nisbatan 2025-yilda umumiy biznes muhiti indeksi 53 banddan 57 bandga ko‘tarilgan (+7%). Bu iqtisodiy barqarorlikning ijobiy tomonga o‘zgarayotganidan dalolat beradi. Statistik nuqtai nazardan, indeksning 0 dan +100 gacha bo‘lgan shkalada 50 dan yuqori bo‘lishi iqtisodiyotdagi "yo‘nlanish" va

"o‘sish" belgisi hisoblanadi. O'sish sur’ati yuqori bo‘lsa-da (+22%), u hali ham 50 bandlik chegaradan pastda. Bu tadbirkorlarning bugungi kundagi real holati hali to‘liq barqarorlashmaganini anglatadi. Bu ko'rsatkich tadbirkorlarning kelajakka bo‘lgan ishonchi juda yuqori ekanligini ko‘rsatadi. Statistik tahlilda ushbu ko'rsatkich investitsion faollikning asosiy drayveri hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu tadqiqotda O‘zbekiston hududlarining iqtisodiy barqarorligini baholash uchun tizimli yondashuv va iqtisodiy-statistik tahlil usullaridan foydalanildi. Tadqiqotning metodologik asosi quyidagilarni o‘z ichiga oladi. Ma’lumotlar manbasi sifatida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi va Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazining (CERR) 2022–2025-yillardagi rasmiy hisobotlari asos qilib olindi va Biznes muhiti indeksini (Business Climate Index) aniqlashda "Joriy holat" va "Istiqboldagi kutilmalar" ko‘rsatkichlarining o‘rtacha arifmetik qiymatidan foydalanildi.

Natijalar va tahlil

O‘tkazilgan tahlillar natijasida 2024–2025-yillarda O‘zbekistonda hududiy iqtisodiy barqarorlikning ijobiy dinamikasi kuzatildi. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, 2025-yilda umumiy Biznes muhiti indeksi 57 bandni tashkil etib, o‘tgan yilga nisbatan 7% ga o‘sgan. Bu o‘sish mamlakatda iqtisodiy islohotlarning natijadorligini va bozor kon’yunkturasining barqarorlashayotganini ko‘rsatadi. Indeks tarkibini tahlil qilganda, nomutanosiblik ko‘zga tashlanadi: 47 bandni tashkil etgan holda, o‘tgan yilga nisbatan 22% lik keskin o‘sishni qayd etdi. Biroq, ko‘rsatkichning 50 banddan pastligi real sektorda hali ham hal qilinishi lozim bo‘lgan tizimli muammolar mavjudligini bildiradi. Bu tadbirkorlik sub’ektlarining kelajakdagi iqtisodiy barqarorlikka bo‘lgan ishonchi yuqori ekanligidan dalolat beradi. Iqtisodiyotining drayverlari bo‘lgan tarmoqlar tahlili quyidagilarni ko‘rsatdi: 1. Xizmatlar va Sanoat: Har ikki tarmoqda ham 10% lik o‘sish kuzatilgan. Bu hududlarda urbanizatsiya va sanoat klasterlari samarali ishlayotganini isbotlaydi. 2. Qurilish: Iqtisodiy faollikning oshishi natijasida 57 bandlik ko‘rsatkich bilan 7% lik o‘sishga erishilgan. 3. Qishloq xo‘jaligi: Ushbu tarmoqda 1% lik pasayish qayd etilgan. Bu holat iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashda agrar sohadagi risklar (suv tanqisligi, logistika) hali ham yuqori ekanligini ko‘rsatuvchi statistik signaldir.

Tarmoq nomi	2025-yil indeksi	O’sish/Pasayish (%)	YaIMdagi ulushi (%)
Xizmatlar	58	+10%	14.7
Qurilish	57	+7%	14.2
Sanoat	54	+10%	6.8

Qishloq xo’jaligi	56	-1%	4.4

3-rasm. 2025-yilda indekslarning tarmoqlar bo’yicha hisobi

Muhokama

Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, statistik indekslar nafaqat o‘tmishdagi natijalarni qayd etadi, balki kelajakdagi xatarlarni prognoz qilish imkonini ham beradi. Qishloq xo‘jaligidagi pasayish tendentsiyasi hududiy barqarorlikni saqlab qolish uchun resurs tejovchi texnologiyalarni joriy etish zarurligini ko‘rsatmoqda. Xizmatlar sohasining yuqori o‘sishi esa hududlarda diversifikatsiya jarayoni muvaffaqiyatli kechayotganidan dalolat beradi.

Xulosa

O‘zbekiston hududlarining iqtisodiy barqarorligini baholashda statistik indekslar shunchaki raqamlar yig‘indisi emas, balki strategik boshqaruv vositasidir. To‘g‘ri tanlangan va tahlil qilingan indekslar iqtisodiyotdagi "zaif nuqtalar"ni vaqtida aniqlash, resurslarni oqilona taqsimlash va uzoq muddatli barqaror o‘sishni ta’minlash imkonini beradi. Statistik ko‘rsatkichlarning shaffofligi va xalqaro metodologiyalarga muvofiqligi mamlakatning investitsion jozibadorligini oshiradi. Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, hududlarni raqamli statistika asosida boshqarish-iqtisodiy farovonlikning eng qisqa yo‘lidir. O‘zbekiston hududlari va tarmoqlari iqtisodiy barqarorligini baholashda Biznes muhiti indeksi kabi statistik ko‘rsatkichlar eng xolis va aniq instrument hisoblanadi. Shu tariqa, statistik tahlil milliy iqtisodiyot boshqaruvining poydevori sifatida O’zbekistonning barqaror iqtisodiy rivojlanishi, barqarordoshligini kuchaytirish va aholi farovonligini oshirishda hal qiluvchi o’rin tutadi. Statistik axborot tizimini takomillashtirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar mamlakatni iqtisodiy taraqqiyotning yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1.https://cyberleninka.ru/article/n/o-zbekiston-iqtisodiyotida-statistik-tahlilning-o-rni-va-ahamiyati. Axmedova M. Sh. dotsenti iqtisod, moliya va buxgalteriya hisobi kafedrasi.
2. https://stat.uz/images/uploads/reliz-2023/jurnal20231sonuzjami.pdf. Suvpo‘latov Ozodjon Alijon o‘g‘liToshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti mustaqil izlanuvchisi.
3.Vahobov A.V., Tojiboyeva Sh.A. "Hududlar iqtisodiy salohiyatini baholashning statistik usullari" // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar ilmiy-elektron jurnali.
4.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi — www.stat.uz
5.Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali — www.my.gov.uz.
6.Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi (CERR) — www.cerr.uz.

“MILLIY STATISTIKA TIZIMIDA YANGI BOSQICH: BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARI, XALQARO STANDARTLAR VA ZAMONAVIY TENDENSIYALAR”

SUN’IY INTELLEKT ASOSIDA HUDUDIY XIZMATLAR TALABINI PROGNOZ QILISHNING STATISTIK YONDASHUVLARI

ERKABOYEVA JASMINA SAFARALI QIZI
Toshkent Davlat Iqtisodiyot universiteti
Turizm fakulteti, 2-bosqich talabasi
erkaboyevajasmina2007@gmail.com
94 268 84 80

Annotatsiya: Mazkur maqolada hududiy xizmatlar talabini prognoz qilishda sun’iy intellekt va statistik yondashuvlarning integratsiyalashgan modellari tahlil qilinadi. Klassik ekonometrik usullarning cheklovlari hamda mashinaviy o‘qitish va chuqur o‘rganish algoritmlarining ustunliklari ilmiy asosda yoritilgan. Tadqiqotda hududiy xizmatlar dinamikasiga ta’sir etuvchi asosiy omillar aniqlanib, SI asosidagi prognozlash tizimlarining amaliy samaradorligi ko‘rsatib berilgan. Natijalar hududiy boshqaruv va resurslarni optimallashtirishda ma’lumotlarga asoslangan qaror qabul qilishning ahamiyatini tasdiqlaydi.

Kalit so‘zlar: sun’iy intellekt, statistik prognozlash, hududiy xizmatlar, mashinaviy o‘qitish, LSTM, ekonometrik modellar, data-driven yondashuv, hududiy rivojlanish, bashorat qilish tizimlari, raqamli iqtisodiyot

Аннотация: В данной статье анализируются интегрированные модели искусственного интеллекта и статистических подходов к прогнозированию спроса на региональные услуги. Научно обоснованно раскрываются ограничения классических эконометрических методов и преимущества алгоритмов машинного обучения и глубокого обучения. В исследовании определены ключевые факторы, влияющие на динамику региональных услуг, а также показана практическая эффективность систем прогнозирования на основе искусственного интеллекта. Результаты подтверждают важность принятия решений на основе данных для регионального управления и оптимизации ресурсов.

Ключевые слова: искусственный интеллект, статистическое прогнозирование, региональные услуги, машинное обучение, LSTM, эконометрические модели, data-driven подход, региональное развитие, системы прогнозирования, цифровая экономика

Abstract: This article analyzes integrated models of artificial intelligence and statistical approaches for forecasting the demand for regional services. The limitations of classical econometric methods and the advantages of machine learning and deep learning algorithms are scientifically examined. The study